

MUROD MUHAMMAD DO'STNING “DASHT-U DALALARDA” HIKOYASIDA MILLIY RUHIYAT MASALALARINING AKS ETISHI

Eshbo'tayev Elshod

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti Tel:+998914648095.

Email: eshboelshod@gmail.com

Annotatsiya: *Yozuvchi, shoirlarimiz o'z asarlari orqali umuminsoniy qadriyatlar, hayotning turli sinovlari, turfa insonlar taqdiri, milliy o'ziga xoslik kabi muhim mavzularni qalamga oladilar. Dunyo adabiyotida shunday buyuk yozuvchilar o'tganki, ularning soni anchayin ko'p topiladi. Ularning asarlari yer yuzidagi barcha xalqlar uchun umumashariy mavzularni qalamga olganligidadir. Biroq shunday yozuvchilar borki, ular ma'lum bir millat, yurt haqida buyuk asarlar yaratib o'sha millat uchun milliy qahramon darajasida qadrlanadi. Chunki, ularda millatning ruhiyati, milliy o'ziga xosligi, ta'bir joiz bo'lsa milliy koloriti yorqin bo'yoqlarda aks etadi. Shunday ijodkorlardan biri, bugun biz tilga olmoqchi bo'lgan buyuk iste'dod egasi, yorqin adibimiz Murod Muhammad Do'stning “Dasht-u dalalarda” hikoyasidir. Ushbu maqolada "Dasht-u dalalarda" hikoyasida o'zbek millatiga xos kechinmalar, ruhiyat tasvirlari, o'zbekona xarakter masalalarini ko'rsatib bermoqchimiz.*

Kalit so'zlar: *milliy ruhiyat, hikoya, obraz, cho'pon yigit, kuyovnavkar, muhabbat, oriyat, taloq, ijtimoiy-falsafa, kolorit*

Bu asar haqida yozuvchi Nazar Eshonqul shunday deydi: “Menga XX asrning beshta eng yaxshi hikoyasini sanang deyishsa, shubhasiz, shu beshtaning ichiga “Dasht-u dalalarda” hikoyasini qo'shgan bo'lardim. Mabodo XX asrning birdan bir yaxshi hikoyasini ayting deyishsa, yana shu hikoyani tilga olardim... Mendan bitta asar bilan yozuvchi adabiyotda qolishi mumkinmi deyishsa: “Ha! Bu Murod Muhammad Do'st va uning “Dasht-u dalalarda” hikoyasi” – deb javob qaytarardim”. Albatta bunday e'tirof mubolag'a emas. Haqiqatdan “Dasht-u dalalarda” hikoyasi ana shunday e'tirofga loyiq asar. Yozuvchi tabiri bilan aytganda asar “Muhabbat haqidagi barcha asarlarga iddao tarzida” yozildi. Ya'niki muhabbat haqidagi asarlarda oshiq va ma'shuqa har tomonlama yetuk obrazlar sifatida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi asariga atayin cho'pon yigit va uning xotinini bosh obraz qilib oladi. Ya'ni u shu vaqtgacha yozilmish asarlardagi (tipik sujet) sevgiga birmuncha kesatq va boshqalarda uchramaydigan tarzda ta'rif beradi. Hikoyada bir qarashda “hayot atalmish daryo oqimidan ortda qolib ketgan” sodda, birmuncha omi, oddiy kishilar. Lekin, shu oddiy, sodda, balki, qo'pol, soddadil odamlar xarakteri, ruhiyati, fe'l-atvori, ko'nglidagi nurli tomonlarini, yuksak darajadagi ma'naviy boyligi, o'tda kuymaydigan, suvda cho'kmaydigan sevgini ko'rsatishga, balki tarannum qilishga muvaffaq bo'ladi. Polvon ham, xotini Xadicha ham oddiy qishloq odamlari. Polvon Nazar Maxsumga o'zi aytganidek “olishadigan polvon emas, otasi qo'yib ketgan ismi”. Xadicha ham chiroyda

ham, yurish-turish o'zini tutishida ham boshqalardan deyarli umuman farq qilmaydi. Polvon cho'ponlik qiladi, Xadicha uy yumushlarini. Ularning Chaman ismli to'rt yashar qizchasi ham bor. Asarda Polvonning singlisi Adolat, kuyovnavkar bo'laman deb boshidan tosh yegan va butun Galatepa qishlog'iga kulgi bo'lgan G'uchchi chol, odamlar bilan urishganda har ne nomardlikdan qaytmaydigan qo'shnisi Salim saqich, uning xotini Mahfirat, "Maxsum buva" nomiga yarashmaydigan xiyla ayyor, "savobli ish" qilib yuradigan Nazar Maxsum, g'ururi o'zidan baland Xadichaning ukasi Sattorqul va boshqa obrazlar bor. Voqealar Polvon atrofida kechadi.

Yozuvchi hikoya qahramonlarini yalang'och tasvir bilan ta'riflamaydi. Ko'klarga ko'tarib maqtamaydi ham. Aksincha, ularni suhbatlari orqali, o'y-fikrlari, o'zini tutishi, ba'zan holati bilan ko'rsatib beradi. Biz ham maqolada bir necha o'rinlarda asardan iqtibos keltirdik. Maqsad poetik obrazlarga quruq ta'rif emas, "Psixologik tasvir" va "Dialog" lar berish va shu orqali o'quvchi obrazlarni o'zi "tanib" oladi.

Polvon voqealarni boshqaruvchi obraz. Barcha voqealar u bilan kechadi. Asar voqealaridan Polvonni kamgap, xiyla baquvvat, mulohazali, shu bilan birga jahli tezroq, birmuncha o'rliigi ham bor, ammo xotinini yaxshi ko'radigan, ishonuvchan, ba'zan rahmdil, g'ururi baland, dovyurak ekanligini anglash mumkin. Xadicha ham o'zbek ayollari singari, sodda, samimiy qishloq ayoli. Ukasi Sattorqulning xotini tug'ganda ikki hafta ukasinikiga qolib, Salim saqichning tuhmatiga qoladi. Polvon o'zi rostgo'y bo'lgani uchun, qolaversa mast holatda bu gapga ishonadi. Xadicha qasam ichib, qizini, enasini hatto Xudoni guvoh qilsa ham Polvon ishonmaydi. Ishongisi kelsa ham, ko'ngilda tugun qolishini biladi. Xadichaning ota uyiga ketib qolishini yozuvchi shunday tasvirlaydi: "Bir sidra kiyimini tugun qilib poygakda qotib turdi, eridan bir sazo chiqishini kutdi, lekin Polvon er bo'lib bir narsa demadi. Dahlizga chiqib yana birpas turdi, hovliga chiqib hovlida turdi, ilindi, qaytarib olarku, dedi, ammo Polvon teskari to'ng bo'lib yotaverdi". O'zbek ayollari vafoli, sadoqatli. Erining Salim saqichning gapiga ishonib qistovga olishi-yu, musht ko'tarishiga-da chidagan Xadicha, Polvonning qizi haqida: "Ma, muniyam obket, pishirib yeysanmi, isqotinga qo'yasanmi?!..." degan tahqirli gapiga chiday olmay uyiga ketishga majbur bo'ladi.

Adabiyotda milliy ruh ifodasini bir necha xil tamoyillar asosida tahlil etish mumkin. Bu tamoyillar fikrimizcha, quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: 1) millatning asl tabiatini, siyratini aks ettirish; 2) poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi; 3) poetik obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi. Asar sujeti boshqa asarlarnikidan farq qiladi. Ya'ni asar "Kompozitsiya", "Tugun" qismlaridan emas, to'g'ridan to'g'ri "Voqealar rivoji" bilan boshlanadi. "Kompozitsiya" esa asar voealari, dialoglar, qahramonlar holatiga singdirib yuborilgan. Asarning boshlanishi quyidagicha kechadi: "Xadicha ketdi-yu ko'ngildan halovat ham ketdi. Uy bamisoli o'lik chiqqanday huvillaydi. Polvonning yuragi toriqdi – uyni tark etdi, boqqa olib tushadigan qiyalikdagi bobosidan qolgan yerto'lani o'ziga boshpana qildi. Odamlarning kulishini bilardi, ammo uydagi hamma narsa Xadichani esga soladi: ostonaga qadami

tekkan, devorga yelkasi – chidab o'tirish qiyin bo'ldi". Xadicha ketayotganda Polvon jahl ustida: "Ketsang ketaber Xatcha, men ham sensiz uloqib ketmasman!..." deydi. Asar tili boshqa hech bir yozuvchi ijodida uchramaydigan bir tarzda, xuddiki "Poeziya" ga, yoki xalq dostonlaridagi qofiyali nasr - sa'jga o'xshab bayon qilinadi. Biroq bunda poeziyadan farqli o'laroq hissiyotdan ko'ra ko'proq obraz ruhiyati va manzara faylasufona tarzda namoyon bo'ladi.

Ammo voqealar shuni ko'rsatadiki Xadichasiz Polvon keyin hamma voqeani teran anglaydi. Xo'rliqi kelib, o'zining notavonligini ham anglab yetadi. Bunga keyinchalik iqrar bo'ladi: "Xadicha yoningda yotganida o'lim yodingga tushsa ham qo'rqmaysan: xotining bor, bolang bor, tepangda - Xudo, e, bir gap bo'lar-da, deb o'ylaysan. Xadicha bo'lmasa qiyin ekan". Xadichaning Polvon bilan arazlashib uyiga ketishidan boshlangan voqealar, yo'lda quv chol Nazar Maxsumni uchratishi-yu, jahl ustida undan xotiniga taloq aytib yuborishi, so'ngra pushaymon bo'lib Xadichani olib kelish uchun borganda sho'rquduqliklar tomonidan o'lasi qilib kaltaklanishigacha boradi.

Asarning kulminatsiyasida Sho'rquduqqa borganda Xadichaning: "Talog'imni aytdingizmi?" degan gapiga javoban, Polvon: "Aytardim, lekin endi bo'lmaydi, ilojim yo'q, aytsam - qo'rquqqa chiqaman. Chidaysan endi, Xatcha", - deydi. Polvon - oriyatli, mard yigit obrazi. Chunki, qaynisi Sattorqul va uning ikki sherigi uning adabini bermoqchi bo'lib quvib yetganida, nomardlik bo'lmasin deb etik qo'njiga qo'l yubormaydi. Ularga gap qotganda ham qaynisiga emas, uning sheriklariga do'q qiladi. Hikoya so'ngida Polvon ham Xadicha ham o'z ayblarini tushunib yetishib, yana yarashib oladi.

Maqolaga kirishganimiz shu kichik hikoya har bir o'zbek, albatta, o'qishi kerak bo'lgan asarlardan. Bu asar xulosa qilib aytganda milliy ruhiyatimizni, o'zbekning "men"ini aks ettirgan asar. Bu hikoya yozuvchi Murod Muhammad Do'stning nafaqat o'zbek adabiyotida va balki jahon adabiyoti darajasida muhabbat haqidagi eng mashhur asarlar qatorida turishga loyiq asar namunasi. Ushbu hikoya katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."XX asr o'zbek hikoyachiligi antologiyasi". Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: B. Karimov, H.Abdiyev. - T. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.(284-293-betlar).
2. Erkin Xudoyberdiyev. "Adabiyotshunoslikka kirish: oliy o'quv yurtlari uchun darslik". T - "Sharq", 2008. 368 bet.
3. Nurboy Jabborov.Maqola."Nekim taqdir bo'lsa – ul bo'lur, tahqiq bilgaysen – milliy ruhiyat musavviri iztiroblari". <http://oyina.uz>. 12.02.2022.